

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURMONOVA SARVINOZ FURQAT QIZI**

**SIROJIDDIN SAYYID IDIOSTILI VA POETIK NUTQ  
KONSEPTOSFERASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Nurmonova Sarvinoz Furqat qizi**

Sirojiddin Sayyid idiositili va poetik nutq konseptosferasi..... 3

**Нурмонова Сарвиноз Фуркат кизи**

Идиостиль и концептосфера поэтической речи Сироджиддина Саййида ..... 25

**Nurmonova Sarvinoz Furkat kizi**

Idiostyle and the conceptosphere of poetic speech of Sirojiddin Sayyid..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NURMONOVA SARVINOZ FURQAT QIZI**

**SIROJIDDIN SAYYID IDIOSTILI VA POETIK NUTQ  
KONSEPTOSFERASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil.2175 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasi [www.uzmu.uz](http://www.uzmu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yusubova Ra'no Norboyevna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Kurbanova Muxabbat Matyakubovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Baxronova Dilrabo Keldiyorovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2025-yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 108-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.A.Rahmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**M.B.Xujamkulova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d., dotsent

**A.E.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon tilshunosligida barqarorlashib borayotgan antropotsentrik paradigmaga ko'ra insonning tafakkuri, tashqi dunyoni idrok etishi til bilan bevosita bog'liq ekan, badiiy matnni lingvokulturologik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistik, pragmalingvistik, psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish maqsadga muvofiqligi amaliy isbotini topib ulgurdi. Tilshunoslik bugunga kelib, til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs, til va tafakkur kabi muammolar tadqiqi bilan shug'ullanayotgan ekan, tilning badiiy-estetik jihatlarini o'rganuvchi badiiy asar tili tadqiqida ham ushbu jihatlar yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy nutqni kognitiv va konseptual yondashuvda tahlil hamda talqin qilishning, ijodkor idiositilini aniqlashning yangi metodologik sistemasini shakllantiruvchi tadqiqot yo'nalishlari dolzarb va istiqbolli bo'lib bormoqda.

Xususan, ijodkor idiositilida milliy mentalitetni mujassam etuvchi konseptlarning yadro va periferiyani tashkil etishi, badiiy matn persepsiyasida kognitiv tarkibning roli, muallifning shaxsiy konseptosferasini tasvirlovchi ilmiy-metodologik asosni ishlab chiqish masalalari va ularning milliy konseptosferaga bo'lgan munosabatini tahlil etish konseptual tilshunoslik uchun ham, lingvopoetika uchun ham qimmatli nazariy bilimlar bera oladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek badiiy matnini o'rganishga oid tadqiqotlarda inson badiiy-estetik olamini zamonaviy tadqiq usullari, xususan, antropotsentrik aspektda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi, bu esa, o'zbek tilining nihoyatda boy imkoniyatlarini yanada yorqinroq anglashimiz va o'zlashtirishimizga sharoit yaratish bilan bir qatorda, muayyan ijodkorning individual uslubiga oid qirralarini ochib berish zaruratini tug'diradi. Bu holat ona tilimizga hukumat darajasida berilayotgan e'tiborning ustuvor maqsadlariga mos keladi. "Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>.

Shu ma'noda, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodiy namunalarini lingvokognitiv, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil etish misolida ijodkor idiositilining konseptlarda namoyon bo'lishi va ushbu konseptlarning yagona konseptosferada birlashuvi ijodkor ijodiy barkamolligining badiiy tilga, o'zbek xalqining badiiy-estetik tafakkuriga ko'rsatadigan ta'siri va o'zbek tilini boyitishga xizmatini tadqiq etish imkonini beradi. Bu holat ushbu masalani ilmiy tadqiq etishga zarurat tug'diradi va dissertatsiya uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // <https://lex.uz/docs/4561730>

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida ijodkor idiositili masalasi L.Huang, N.E.Erkvist, J.Boas Bier, M.Lich, M.Shor, T.Kendall, E.Longley, F.Leavis, G.Manfred<sup>2</sup> tomonidan, rus tilshunosligida ijodkor idiositilini turli aspektlarda tadqiq etish muammosi Ye.G.Malisheva, I.A.Shmul, A.A.Dudareva, I.A.Tarasova, N.V.Kolesova, A.I.Grishenko, N.P.Melnichenko, Ye.V.Klovak<sup>3</sup> tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaga bag‘ishlangan ishlarda hamda lingvostilistik xarakterdagi ishlarda<sup>4</sup> individual uslub masalasiga to‘xtalingan, M.Qosimova, S.Umirova<sup>5</sup> ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan.

Jahon tilshunosligida konseptning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish masalasi G.Lakoff, M.Jonson, E.A.Nilsen va E.P.Enokayevalar, V.A.Maslova, A.Ya.Gurevich,

---

<sup>2</sup> Huang L. Style in translation. A Corpus-based perspective. – China, 2006. – P. 212; Enkvist N.E. On defining style: An essay in applied linguistics. – London: Oxford University Press, 1996. – P. 115; Leech G., Short M. Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose. – London: Longman, 2006. – P. 405; Kendall T. Modern English war poetry. – Oxford Univ.Press, 2006. – 269 p.; Longley E. Yeats and Modern poetry. – Cambridge: Cambridge UP, 2013. – P. 2; Leavis F.R. New bearings in English poetry, a study of the contemporary situation. – Bloomsbury House, 2015. – 238 p.; Manfred G. Introduction to Early Modern English poetry. – Cambridge: Cambridge Univ.Press, 1993. – 256 p.

<sup>3</sup> Малышева Е.Г. Идиостиль Владислава Ходасевича(опыт когнитивно-языкового анализа). Автореф... дисс... канд... фил наук: – Омск, 1997. – 22 с.; Шмуд И.А. Лингвопоэтическая стратификация художественных текстов и изучение индивидуального авторского стиля (на материале произведений Шекспира). Автореф. дис. канд. филол наук. – Москва, 2001. – 24 с.; Дударева А.А. Особенности идиостиля прозы М.Цветаевой. Автореф... дисс... канд... фил наук. – Тверь, 2002. – 27 с.; Тарасова И.А. Поэтический идиостиль в когнитивном аспекте: На материале поэзии Г.Иванова и И.Анненского. Дисс. ...д-ра филол. наук. – Саратов, 2004. – 484 с.; Колесова Н.В. Заимствования в идиостиле В.Аксенова. Автореф... дисс... канд... фил наук. – Барнаул, 2005. – 20 с.; Грищенко А.И. Идиостиль Николая Моршена. Автореф... дисс... канд... фил наук. – Москва, 2008. – 28 с.; Мелниченко Н.П., Кловак Е.В. Типичные авторские модели как реализация универсального и индивидуального в идиостиле. Автореф... дисс... канд... фил наук. – Тверь, 2015. – 28 с.

<sup>4</sup> Жумаев Т. Умар Бокий асарларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.; Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 26 б.; Максумова С.Э. Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 25 б.; Тошхужаева Ш.Ф. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.; Ярашова Н. XXI аср болалар адабиёти тили ва услуби (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида). Монография. – Тошкент: Lesson press, 2020. – 136 б.

<sup>5</sup> Қосимова М.Б. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида). Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 23 б.; Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019.

O.Shpengler<sup>6</sup> kabi bir qator ishlarda e'tibor qaratilgan. V.V.Krasnix, V.N.Teliya, Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, S.G.Vorkacheva, V.I.Karasik, A.A.Vejbiskaya, Yu.N.Karaulova, V.Kolesova, Z.D.Popova va I.A.Sternin, Yu.S.Stepanov, N.N.Boldirev, N.F.Alefrenko kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlari konsept tushunchasining lingvistik va madaniy o'ziga xosligini aniqlashga bag'ishlangan<sup>7</sup>. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham Sh.Safarov, D.Ashurova, A.E.Mamatov, G.H.Boqiyeva, J.Yoqubov, D.Teshaboyeva, A.Yuldashev, Z.Pardayev, M.Galiyeva, N.Nasrullayeva, G.Q.Qadiryeva, A.D.Payzibekova<sup>8</sup> va boshqalarning ishlari asos qilib olingan.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida aynan idiostil muammosiga qaratilgan bo'lmasa-da, alohida bir ijodkor asarlarining tilini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab lingvomadaniy, lingvokognitiv, lingvopsixologik va ayniqsa, lingvopoetik

---

<sup>6</sup> Lakoff G. Women Fire and Dangerous Things. What Categories Reveal about the Mind. – Chicago and L.: The University of Chicago Press, 1987. – P. 23; Johnson (Mark L.). Philosophical Perspectives on Metaphor. – Minneapolis, University of Minnesota Press, 1981. – P. 361; Нильсен Е.А., Енокаева Е.П. К описанию особенностей вербализации концепта ВРЕМЯ-ПРОСТРАНСТВО в английском языке // Актуальные проблемы современной лингвистики: Сб. науч. статей. Выпуск 2. – СПб.: Изд-во СПГУЭФ, 2010. – С. 82; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. Учеб. пособие. – М.: Флинта, Наука, 2011. – С. 296; Гуревич А.Я. Категории средневековой культуры. – М.: Искусство, 1984. – 350 с.; Енокаева Е.П. К описанию особенностей вербализации концепта время-пространство в английском языке / Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. Санкт-Петербургский Государственный университет экономики и финансов, 2010. Выпуск 2. – С. 42; Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. 2. Всемирно-исторические перспективы / пер. с нем. и примеч. И.И.Миханькова. – М.: Мысль, 2011. – С. 606.

<sup>7</sup> Красных В.В. От концепта к тексту и обратно // Вестник МГУ, 1998. Сер. 9. Филология. – № 1; Красных В.В. “Свой” среди “чужих”: миф или реальность? Текст / В.В.Красных. – М.: Гнозис, 2003. – 375 с.; Телия В. Н. Основные постулаты лингвокультурологии // Филология и культура: Материалы 2-й Международной конференции. Ч. 3. – Тамбов, 1999. – С. 14–15; Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. 2. Интегральное описание языка и системная лексикография / Ю.Д.Апресян. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 767 с.; Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка. Ментальные действия. – М., 1993. – С. 3–7; Арутюнова Н. Язык и мир человека. – М., 1999. – С. 793; Воркачев С.Г. Концепт как “зонтиковый термин” // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 24. – М., 2003. – С. 5–12; Карасик В.И. Культурные доминанты в языке / В.И.Карасик // Языковая личность: культурные концепты. – Волгоград-Архангельск, 1996. – С. 45–56; Карасик В.И. Базовые характеристики лингвокультурных концептов / В.И.Карасик, Г.Г.Слышкин // Антология концептов. Т. 1. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 13–15; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. Пер. с англ. / Отв. ред. М.А.Кронгауз. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 776 с.; Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов / А.Вежбицкая. – М.: Языки русской культуры, 2001. – 288 с.; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Текст / Ю.Н.Караулова. Изд. 6-е. – Москва: ЛКИ КОМКНИГА, 2007. – 264 с.; Колесов В.В. Концепт культуры: образ понятие – символ / В.В.Колесов // Вестник СПбГУ, 1992. Сер. 2. Вып. 3. – № 16. – С. 45–46; Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2004.

<sup>8</sup> Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 34; Ашурова Д. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистике // Филология масалалари. – С., 2003. – № 1. – Б. 41; Ёқубов Ж. Тилшуносликда концепт ва категория терминларига доир баъзи мулохазалар // Хорижий адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Илмий маколалар тўплами. – Самарқанд, 2020. – Б. 41–46; Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. – Тошкент: Noshir, 2019. – Б. 160; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 38; Юлдашев А.Г. Тил бирликларини категориялаштиришда когнитив ёндашув // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2020. – № 4 (33). – Б. 105–114; Пардаев З. Лисоний концепт тушунчаси ва унинг структурал муаммолари ҳақида // Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 2010. – № 7 (1–2). – С. 89–91; Галиева М. Метафорическая репрезентация концепта слово в художественном тексте // Foreign Languages in Uzbekistan, 2020. – P. 139–152; Насруллаева Н. Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картах мира. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – С. 14; Қдырбаева Г.Қ. “MAN” – “АДАМ” концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (Инглиз ва Қорақалпоқ тили мисолида). PhD дис. автореф. – Самарқанд, 2017. – Б. 17; Пайзибекова А.Д. Инглиз, рус, ўзбек ва қозоқ тиллари мақолларидаги вақт репрезентациясининг лингвокогнитив аспекти. PhD дисс. автореф. – Тошкент. 2019. – Б. 12.

yoʻnalishdagi ishlarda muallif individual uslubiga munosabat bildirilgan. Ushbu tadqiqotda Sirojiddin Sayyid idiositili lingvomadaniy, lingvokognitiv nuqtayi nazardan oʻrganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Oʻzbek tilining nazariy va amaliy masalalari” yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sirojiddin Sayyid idiositilini lingvomadaniy, lingvokognitiv nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

S.Sayyid idiositilining ijodkor til shaxsining namoyon qilishdagi oʻrnini, tildan foydalanishdagi individualligini aniqlash hamda oʻzbek badiiy nutqi taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini asoslash;

olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasida aks etish koʻlamini tahlil qilish;

Sirojiddin Sayyid konseptual olamini “Yil fasllari” badiiy konseptosferasini aks ettirish maydoni sifatida ochib berish;

“inson” badiiy konseptosferasini tashkil etuvchi konseptlar verbalizatsiyasini ijodkor idiositilini harakatlantiruvchi tayanch sifatida tahlil qilish, konseptosferani tashkil etuvchi konseptlarning lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qilish orqali S.Sayyid idiositilini koʻrsatib berish.

Tadqiqotning obyekti Tadqiqotning obyekti sifatida Sirojiddin Sayyid sheʼriy toʻplamlaridagi asarlari tadqiqot obyekti qilib olindi.

Tadqiqotning predmetini oʻzbek tilidagi badiiy matnda ijodkor idiositili va poetik nutq konseptosferasiga mansub lingvomadaniy birliklar, lingvokognitiv imkoniyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda, tasnifiy, tavsifiy, kontekstual, lingvokulturologik, kognitiv, diskursiv, konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sirojiddin Sayyid sheʼriyatida sevginigor, hiloltirnoq, simsoʻz, temirdil, haromnamak kabi leksemalar shoir ijodida oʻziga xoslikni taʼminlovchi okkazional yaratilmalar ekanligi sheʼriy matnlar asosida dalillangan;

shoir olamining konseptual manzarasida urchuq, lola, chimildiq kabi lingvokognitiv va lingvomadaniy oʻxshatishlar ijodkor individual uslubini ochib berganligi asoslangan;

Sirojiddin Sayyid poetik tafakkuri va individual manerasini belgilaydigan poetizmlar, individual yaratilmalar, milliy-madaniy birliklar “Yil fasllari” konseptosferasini tashkil etuvchi konseptlar ijodkor idiositili doirasida aniqlashtirilgan;

Sirojiddin Sayyid idiositilini belgilovchi “ayol”, “yigit”, “baxt”, “sevgi”, “farzand”, “ona”, “vatan” konseptlarining yadro va periferial qatlami lingvomadaniy, lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning “inson” konseptosferasidagi oʻrni ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasida badiiy tusda aks etishi konseptosfera koʻrinishida voqelantirilishi lingvomadaniy-lingvokognitiv

jihatdan kompleks yondashishda o'z ifodasini topgan. Badiiy tushunchalarni ifodalovchi konseptlarda obrazli ma'noning voqelanish mexanizmiga doir nazariy qarashlar, umuman, ijodkor badiiy olamini belgilovchi idiostilini shakllantiruvchi kognitsiyasi tahlildan o'tkazilgan;

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning idiostili shoir she'rlari misolida o'zbek tili birliklarini o'rganishda kontekstual, konseptual tahlil metodlarining o'ziga xos jihatlari umumlashtirilgan, uning imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan isbotlangan; ijodkor individual uslubi okkazonal formalar, takrorlar, "Yil fasllari" konseptosferasi, shuningdek, "Inson" konseptosferasiga mansub konseptlarning nominativ maydon ko'lami bilan izohlashda o'zbek tilining leksik, grammatik sathlari, lingvopoetik imkoniyatlariga tayanilganligi, konseptual tajriba materiallari orqali mazkur konsept doirasida olib borilgan kuzatishlar tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli, ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tasniflash, lingvokulturologik, lingvokognitiv, kontekstual tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar hozirgi kunda tilshunoslikda dolzarb bo'lgan lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, matn tilshunosligi masalalari yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi va to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, olingan xulosalar matni antropotsentrik yo'nalishda o'rganish uchun muhim manba bo'lishi, tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlari uchun "Matn tilshunosligi", "Lingvokulturologiya", "Kognitiv tilshunoslik" kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun ilmiy-amaliy manba vazifasini o'taydi; undan filologiya yo'nalishi uchun tanlov fanlaridan maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda ham samarali foydalanish mumkin; tadqiqot natijalari asosida ijodkor individual uslubi ilmiy va amaliy tadqiqi boshqa lingvomadaniy, lingvokognitiv yo'nalishdagi ishlar o'rganilishida muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sirojiddin Sayyid idiostili va poetik matn konseptosferasi masalasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tilshunoslikda konsept muammosining o'rganilishi, ikkilamchi nominativ birliklarning badiiy konseptni shakllantirishi, aynan ana shu ma'nolarga qarab konseptosferaga kiruvchi konseptlarning sifat va miqdor aloqalarini belgilash mumkinligi, konseptual aloqalar konseptlarning mazmunini boyitishi to'g'risidagi xulosalardan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 29-martdagi 109/1-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada keltirilgan dalillar, tahlil natijalari konseptual aloqalar konseptlarning mazmunini boyitishda ijobiy samara bergan;

xalqona ohangdagi she'rlarda milliy-madaniy birliklar, xususan, maqol, o'xshatish, frazema, metaforalar ijodkor konseptual olamining lisoniy voqelanish

darajasini ko'rsatuvchi omil ekanligi, milliy-madaniy dunyoqarash ifodasida tayanch badiiy konseptlarni hosil qilishi to'g'risidagi xulosalardan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G002 raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 29-martdagi 110/1-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar she'riyat tilida "inson" konseptosferasiga mansub "yigit", "ona", "ayol", "farzand", "vatan", "muhabbat" "baxt", "sog'inch" kabi mikrokonseptlarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berish imkonini bergan;

Sirojiddin Sayyid ijodining individualligi, idiostiliga xos xususiyatlar, poetik matn konseptosferasi va konseptlar talqiniga oid ilmiy xulosalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasi "Diyor" teleradiokanali "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasi "Diyor-24" teleradiokanalining 2023-yil 30-oktyabrdagi 06-25-915-son ma'lumotnomasi). Natijada Sirojiddin Sayyid ijodida o'z ifodasini topgan o'zbek xalqiga xos milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi konseptlardan ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashda foydalanishning ilmiy-pedagogik mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan. Natijada ushbu ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (shundan uchta xorijiy jurnallarda), turli to'plamlarda 10 ta tezis va ilmiy maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Zamonaviy tilshunoslikda ijodkor idiostilini o'rganishning lingvistik shartlari" deb nomlangan birinchi bobida badiiy matnda idiostil fenomenini tushunish muammosini o'rganish masalalariga doir tilshunoslikda mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan va zarur o'rinlarda ularga munosabat bildirilgan. Ushbu bobning birinchi fasli "Lingvistik tadqiqotlarda idiostil fenomenini tushunish muammosi" deb nomlangan bo'lib, bunda mavjud tadqiqotlardagi idiostil haqidagi fikrlar, qarashlar bayon qilingan va keng tahlilga tortilgan.

Matn qurilishi va mazmunini o'rganishga kirishish, tabiiy, idiostil (muallif individual uslubi) muammosini ko'ndalang qo'ydi. Aslida uslub (stylus) atamasi qadimgi Rimda termin sifatida qo'llanila boshlanib, dastavval Aristotel uslub masalalariga to'xtalgan, uslub – individual xususiyat bo'lganligi uchun ham ikki so'z birikib, individual uslub atamasi yuzaga kelgan va “individual uslub” termini birinchi marta XVIII asrda Fransiya ritorikasida qo'llanilgan. Hozirda lingvistik atama sifatida qo'llanilayotgan idiostil aslida individual stil (uslub) birikmasining qisqartirilgan shakli bo'lib, individual mualliflik uslubiga nisbatan qo'llanadi. Ko'p asrlar mobaynida idiostil tushunchasi “yozuvchi uslubi”, “ijodkor mahorati”, “ijodiy uslub”, “poetik individuallik”, “individual mahorat”, “individual uslub” atamalari ostida o'rganib kelingan. Dastavval stilistikaning o'rganish obyekti bo'lib, so'ngra umuman til egalariga nisbatan qo'llangan, chunki inson faoliyatining 90 foizini nutqiy faoliyat tashkil etar ekan, til egalari, avvalo, o'z nutqlarida shaxsiy xususiyatlarini namoyon etadilar. Bizningcha, idiostil o'zining mohiyatini lingvopoetikada to'la topgan, sababi ijodkorning ijodiy davri bosqichma-bosqich tahlil qilinganda uning asarlarida badiiy tafakkurning yangilanib borganligi kuzatiladi, tabiiy, bu holat ijodkorning kommunikativ-kognitiv bazasining sayqallanib, boyib borganligini ko'rsatadi.

To'g'ri, idiostil keng tushuncha sifatida ijtimoiy mavqeyi va kasbidan, yoshi va jinsidan qat'i nazar har qanday til egasining shaxsini namoyon qiladi, uning tildan foydalana olish iqtidori, nutqiy imkoniyatlari, shakl va ma'noni ruhiyati, shaxsiyati bilan uyg'unlashtira olganligini anglatadi. Shuning uchun ham ijodkorning til shaxsi sifatidagi idiostilini o'rganish muhimdir. Oddiy fuqaro, siyosiy arbob, rahbar yoki ijodkor tilini o'rganish ularning tildan foydalana olish iqtidori, nutqiy imkoniyatlari va shaxsiyati haqida ma'lumotlar beradi.

Muallifning individualligi badiiy matnga qo'yiladigan jami mezonlarda, masalan, nutqiy mahoratda, kognitiv yondashuvda, axloqiy mezonlarda, shakl va mazmun uyg'unligida, milliy-madaniy qarashlarda, estetik va psixologik “manzara”larda yaqqol seziladi. Shu boisdan XX asrga kelib muallif individual uslubini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan.

Jahon tilshunosligida tilni stilistik me'yorlarga tayanib tahlil qilish va ifodalash uslubiyatning muhim muammolari sifatida o'rganilishi XVII asrlarga taqalar ekan, uslubiyatga jiddiy e'tiborning qaratilishi bois muallifning individual uslubi masalasi ham kun tartibiga qo'yildi. XVIII asr oxirlari va XIX asrning 30-yillarida rus adabiyotida ham individual uslub masalasi stilistikaga ergashgan holda maydonga chiqdi, XX asrning 50-yillaridan boshlab muallif idiostiliga oid ilk izlanishlar lisoniy shaxs muammosi bilan shug'ullangan A.I.Yefimov, Y.N.Tinyanov, N.Karaulov va V.V.Vinogradovlar nomi bilan bog'liq. A.I.Yefimovning fikricha: “Idiostil – badiiy asar yaratuvchisi sanalmish yozuvchi tomonidan yaratilgan yoki asarga olib kirilgan nutq birliklarining individual sistemasidir”<sup>9</sup>.

Yangi asrda o'zbek tilshunosligida ham idiostil masalasiga yo'naltirilgan salmoqli ishlar maydonga keldi. Shuningdek, o'zbek olimlari ham ko'p yillar mobaynida idiostilni individual uslub termini ostida tadqiq etganlar, ta'kidlaganimizdek, idiostil muammosi alohida monografik tarzda o'rganish markaziga qo'yilmagan bo'lsa-da,

---

<sup>9</sup> Ефимов, А. И. Стилистика художественной речи. – М., 1957. – С. 166.

ko‘plab ijodkorlarning asarlari tili o‘rganilishi barobarida ularning individual uslubiga munosabat bildirilgan, masalan, B.Umurqulovning “Poetik nutq leksikasi” asarida ijodkorning individual uslubi masalasi ko‘tarilgan. M.Yo‘ldoshevning: “Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o‘rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham e‘tibor qaratish nazarda tutilgan”<sup>10</sup>, – degan qarashlari idiostil mohiyatini birmuncha aniqlashtiradi.

Usmon Azim she‘riyati matni lingvopoetik tahlilida uning ijodiga xos bo‘lgan idiostilni “poetik individuallik” atamasi ostida o‘rgangan S.Umirova “Ijodkorning individual mahorati sabab, matnda qo‘llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va faqat shu ijodkor uslubiga xos bo‘lgan individual vositaga aylanishi mumkin. Lingvopoetik tadqiqotlar umumfilologik tadqiqotlarning o‘ziga xos cho‘qqisi hisoblanadi va uning uchun insoniy tuyg‘ularning yuksak ifodasi bo‘lgan tilning oliy maqomdagi imkoniyatlari kuzatish obyekt sifatida olinadi”. Tadqiqotchi poetik sintaktik elementlarining, g‘ayrioddiy sintaktik qurilmalarning, alliteratsiya, sintaktik parallelizm, oksyumoron va epitetni poetik individuallikni belgilovchi omillar sifatida tahlilga tortgan.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joiz, muallif yondashuvi, voqelikka bahosi, uning badiiy ideali ham idiostilda asosiy mezonlar sanaladi hamda muallifning ijodiy individualligini yuzaga chiqarishga, uning badiiy idealiga xizmat qiladi. Demak, ijodkor tildan foydalanishda individual-neologizm tanlashga yoki so‘zga yangi ma‘nolar yuklashga yoxud betakror strukturalar yaratishga intiladi.

Bobning “Idiostil ijodkor til shaxsining namoyon bo‘lishi sifatida” deb nomlangan ikkinchi faslida S.Sayyid idiostilida lingvomadaniy birliklar, okkazional formalar, takrorning o‘rni tahlil qilingan.

Tilning betakrorligi badiiy nutq turlari misolida olinganda, poetik nutqda bo‘rtib turadi. Tilning estetik vazifasining to‘la namoyon bo‘lishini o‘zida ta‘min etgan poetik matn ijodkor konseptual tizimidagi tanlovlarning nutqiy tanlovlar ko‘rinishida voqelantirish bilan yuzaga chiqadi. Odatda, estetika haqida so‘z ketganda, R.A.Budagovning: “Tilga va nutqqa nisbatan “estetik”likni so‘zlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotganligiga va nima haqida so‘zlayotganligigagina emas, balki qanday gapirayotganligiga va qanday so‘zlayotganligiga ham ongli munosabati sifatida tushunmoq kerak”<sup>11</sup>, – degan fikrlari yodga tushadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joiz, muallif yondashuvi, voqelikka bahosi, uning badiiy ideali ham idiostilda asosiy mezonlar sanaladi hamda muallifning ijodiy individualligini yuzaga chiqarishga, uning badiiy idealiga xizmat qiladi.

Ko‘pincha bir she‘rdagi estetik maqsadni yuzaga chiqarish takror shakllarga yuklatiladi, shu asosda she‘rda aytilmoqchi bo‘lgan fikr yuzaga chiqadi, masalan, Sirojiddin Sayyidning har bir bandi to‘rt misradan iborat 13 bandli “Vatanni o‘rganish” she‘ridagi badiiy g‘oya takror orqali voqelangan. Mazkur ellik ikki misrali she‘rda Vatan so‘zi 23 marta, men so‘zi 13 marta, o‘rganmoq so‘zi 7 marta qo‘llangan, harakat va uning yuzaga chiqish o‘rnini ifodalovchi ikki so‘zning (Vatan, o‘rganmoq) sarlavha

<sup>10</sup> Ўйлошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили. –Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси: Фан, 2006. – Б. 10.

<sup>11</sup> Qarang: Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981. – Б. 4.

darajasiga olib chiqilganligi bejiz emas. Aynan shu ikki soʻz takrir sanʼatini yuzaga keltirgan. Maʼlumki, takrirda takrorlanayotgan soʻz sheʼrning turli oʻrnida, turli formalarda qoʻllana oladi, takrir vositasi orqali sheʼrdagi maʼlum holatga, soʻzga, umuman til birligiga urgʻu beriladi va sheʼr davomida aynan shu tushunchaning mohiyati yoritiladi.

Badiiy matnda muallif tomonidan til birliklarining qoʻllanishidagi noodatilik ham idiostilga koʻradir, okkazional shakllar, bir qaraganda, badiiy qurilmaning, struktural tomoni bilan aloqador koʻrinsa-da, aslida ijodkorning kognitiv yaratilmasi sifatida mazmun betakrorligiga xizmat qiladi. S.Sayyid badiiyati tilining aynan okkazional ifodalar tahlili jihatidan koʻrib chiqish obyektiv olamning muallif tomonidan subyektiv tasvirlangan konseptual maydonini aniqlash imkoniyatini beradi. S.Sayyid tomonidan -iy, -ona, -chilik, -kor, -lash, -kash, -zor, -parvar, -dor, ser- kabi soʻz yasovchilari asosida umriy, gʻazaliy, osmoniy, sultonona, shohchilik, farovonchilik, nolakor, naʼrakor, solimlashur, alamkash, boʻsazor, sumanzor, nolazor, kulzor, mehrparvar, mamlakatdorlik, serjarang, sertoshqin, sertashvish, sertahlaka kabi sodda yasama okkazionalizmlar, shuningdek, Ishqobod, sabrnoma, qalamyosh, Navoiyzod, Boburzod, xushjarang, xusheʼtibor, hiloltirnoq, simsoʻz, temirdil, haromnamak, oliyjoh, bozornavo kabi qoʻshma okkazionalizmlar kuzatiladi.

Okkazionalizmlar oʻzi ishtirok etgan kontekstda vazifa doirasini kengaytiradi, masalan, osmoniy okkazionalizmi tuproq soʻzi bilan tuproq-osmoniy tarzida kontekstual antonimlikni hosil qilgan, shoir tiriklikning baland-pastliklarini, oq-qora dogʻlarini, qisqa-uzun yoʻllarini, yaxshilik-yomonliklardan iboratligini shu ikki soʻzda mujassam etgan.

Quyida okkazional ifoda tejamlilikning yuzaga chiqishiga imkon yaratgan boʻlib, bu tarzda tejamlilikni hosil qilish ijodkorning til imkoniyatlarini chuqur bilishi va oʻz oʻrnida mohirlik bilan foydalana olishini koʻrsatadi: Chechaklar birla yetmish davr-u davron, Saroy-u bogʻ-u dasht javlona kelmish. Nazokat ichradir olam, misoli. Malika oq kiyib sultona kelmish. ...Ketar dil bul kecha ming dilrabodan, Kelinlar gʻoʻra yeb tugʻyona kelmish.

Javlona, sultona, tugʻyona okkazionalizmlari ellipsisning voqelanishiga imkon yaratgan: javlona-javlona urib, sultona-sulton oldiga, tugʻyona-tugʻyon urib tarzida. Individual qoʻllanish natijasida misralardagi ritmik-intonatsion butunlik, ohanglar jilokorligiga erishilgan.

Bobning “Lingvomadaniy birliklar ijodkor idiostilini belgilovchi omil sifatida” deb nomlangan uchinchi faslida keltirilgan shoirning “Vatanni anglash” sheʼridagi quyidagi badda oʻxshatish va sifatlashlar oʻzining ohoriyligi bilan ajralib turadi: Beshiklarda oʻynagan, Oppoq-oppoq qoʻlchalar, Koʻzmunchoqqa soʻylagan, koʻzmunchoqday koʻzchalar, Ochilgan gul-gʻunchalar, Qand-u asal kulchalar, Momolaring toʻy qilgan Ayvonlari Vatandir.

Bu oʻrinda beshik, koʻzmunchoq, kulcha, momo, ayvon soʻzlari oʻzbek xalqiga xos milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi lingvokulturologik birlik sifatida oʻquvchi koʻz oʻngida olamning milliy lisoniy manzarasini badiiylik chegaralarida ochib bergan.

S.Sayyid koʻp hollarda, qiyoslashlar, taqqoslashlarni milliy-madaniy boʻyoqqa ega soʻzlarga yuklab, individual-muallif oʻxshatishlarini hosil qiladi, oʻquvchiga

olamning badiiy lisoniy manzarasini qiyoslash yo‘li bilan milliy bo‘yoqlarda tanitadi:

Dard-u hasrat iplarini yigirib,  
Dunyo momom urchug‘iday aylanar.

O‘zbek urchuq qanday predmet ekanligi, vazifasi nima ekanligidan xabardor bo‘lganligi uchun ham, bilgan predmetining xususiyati boshqasiga ko‘chirilganda, badiiy idroki yordamida obrazli qiyosni milliy tarzda to‘la tasavvur qiladi, dunyoning urchuq aylanishiga o‘xshatilishi ijodkorning milliy obrazli tafakkur mahsulidir.

Sirojiddin Sayyid tanlagan frazemalarda o‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasini ko‘rish mumkin, frazemadagi shakl va ma’no uyg‘unligi tahlili uning obyektidir, frazemalar badiiy matn tarkibiga kiritilganda, turli struktural yoki semantik o‘zgarishlarga uchraydi, aslida har bir individual yaratilma butunlay yangitdan yaratilgan emas, adabiy tilda mavjud shakllar asos vazifasini o‘taydi. Ijodkor yaratgan strukturaning imkoniyati shundaki, u individualligi va imkoniyati kengligi bilan qiymatlidir, ya’ni mavjud ma’noni bir necha shakllarda berish va ma’noning turli ottenkalarini hosil qilish mumkin bo‘ladi. Sirojiddin Sayyid “Na kerak?” she’rida: Ilg‘agil dunyodan munglug‘ kuyingni, Eng avval supurgil ko‘ngil uyingni misralarini keltirish orqali individual frazemani qo‘llaydi. Ko‘ngil uyini supurmoq frazemasini ko‘ngli toza frazemasining poetik qayta ishlangan variantidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Poetik matnda olamning lisoniy manzarasi va konseptosferaning o‘zaro munosabati” deb nomlanib, ikki fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli “Olamning konseptual manzarasining olamning lisoniy manzarasida aks etish ko‘lami” deb nomlangan.

XX asr oxirlarida antroposentrik tilshunoslikning vujudga kelishi pirovardida “til sohibi” tushunchasining keng yoyilishi “olamning lisoniy manzarasi”, “olamning lisoniy tasviri”, “olamning lisoniy kartinasi”, “dunyo manzarasi”, “dunyoning lisoniy tasviri”, “til kartinasi” kabi bir tushunchani ifodalovchi variantdosh terminlarning kirib kelishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi, natijada olam – inson – til munosabatlarini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi.

Olamning lisoniy manzarasi nazariyasi Edvard Sepir tomonidan boyitilgan bo‘lib, olim olam manzarasi va olamning lisoniy manzarasi tushunchalarini farqlab, quyidagicha aniqlik kiritgan: “Inson tashqi dunyoda amalda tilning ko‘magisiz ham tirikchilik qilaverishi va til faqat tafakkur hamda aloqa-aralashuvning o‘ziga xos muammolarini hal qiladigan tasodifiy vosita degan qarashlar illyuziyadan boshqa narsa emas. Amalda esa “real dunyo” g‘ayrushuriy ravishda u yoki bu ijtimoiy guruhning lisoniy odatlariga asoslanib quriladi, til tajribani nazariy jihatdan bo‘linuvchi unsurlarga ajratish xususiyatiga hamda potensial ma’nolarni real ma’nolarga aylantirish quvvatiga ega. Bu esa inson zotiga shaxsiy tajribaning chegarasidan chiqish va o‘zini o‘rab turgan dunyoning umum tomonidan qabul qilingan tasavvurini o‘zlashtirishga imkon beradi”<sup>12</sup>.

Albatta, olamning konseptual manzarasi kengmi yoki olamning lisoniy manzarasi kengroqmi yoki ular tengmi, degan munozaralar mavjud. Olamning lisoniy manzarasi uning konseptual manzarasiga teng emas, olamning konseptual manzarasi – nisbatan

<sup>12</sup> Qarang: Байназаров З.М. Махмуд Кошғарийнинг “Девону луғати-т-турк” асарида ифодаланган оламнинг лисоний манзараси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри ...дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 12–13.

keng va serqirra, chunki inson konseptual olamida tafakkurning turfa, masalan, noverbal shakllari, cheksiz anglanishlar, idrok etishlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi lisonida o‘zining verbal ifodasini topmaydi, uning muayyan qismigina tilda ifoda topadi. Verbal ifodalovchisiga egalik esa ma‘lum bir konseptning millatning amaldagi kommunikatsiyasida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Har bir milliy til, aniqroq aytganda, shu til sohibi konseptual manzarani milliy-madaniy qarashlarga to‘yintirib uzatadi.

Z.D.Popova va I.A.Sterninlarning fikricha, tasavvur konseptning tipi sifatida tilda semantikani leksik birliklarda obyektivlashtiradi, so‘zning lug‘atda berilgan ma‘nosi tasavvurni aniq yuzaga chiqaradi, bunda nominativ birlikning hissiy idrok etiluvchi barcha belgilari sanab o‘tiladi, masalan: qaldirg‘och – o‘tkir qanotli, chaqqon va tez uchuvchi ko‘chmanchi qush<sup>13</sup>. Ingliz ongida ham qaldirg‘och, dumida vilka kabi ikkita nuqta bo‘lgan kichik qush sifatida ta‘riflanadi. Qaldirg‘och so‘zi turkiy so‘z bo‘lib, “qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola rangli chumchuqsimon qush” degan ma‘noni anglatishi, qaldirg‘och shakli fonetik o‘zgargan shakl ekanligi, qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu ot asli qarq‘ig‘ach tarzida va qarlig‘ach tarzida talaffuz qilganligi keltiriladi<sup>14</sup>. Biroq o‘zbek konseptual olamida qaldirg‘och bahor konseptining periferiyasi sifatida qo‘llanganda ham to‘laligicha o‘zbekka xos madaniy yondashuvni aks ettiradi, qaldirg‘och erta bahorda uchib kelib o‘zbek xonadonlaridagi ochiq ayvonlarga uya quradi, polaponlarini tuxumdan chiqarib, ularni ulg‘aytiradi, bu jihat she‘rlarda ham o‘z ifodasini topganligini S.Sayyidning “Bahor Surxondan boshlanar” she‘rida kuzatish mumkin: Keling, yomg‘irlarim, Qaldirg‘ochlarim, Bag‘rimda ochiqdir Barcha ayvonlar. Yoki shoir yana bir she‘rida qaldirg‘och va ayvon so‘zlarini yonma-yon keltiradi: Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni, Qushning ham bek bilan bekasi bordir.

Badiiy tafakkur hosilasini metaforik yo‘sinda ifodalanishining o‘ziga xosligi shundaki, bunda ko‘p hollarda o‘zbek lingvomadaniyatida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan milliy-madaniy birlik tanlanadi. Sirojiddin Sayyidning Muhammad Yusuf xotirasiga bag‘ishlab yozilgan “Marsiya” she‘rida qaldirg‘och individual metaforasi ijodkor shaxsini – shoirni gavdalantirishga xizmat qildirilgan: Mening she‘rim nima? Qaldirg‘och ohi. Ushbu she‘rning yana bir o‘rnida qaldirg‘och kognitiv metaforasi bahor manzarasini emas, balki shoirning – Muhammad Yusufning o‘limini, yozilmay qolgan she‘rlari sog‘inchini ifodalash maqsadida keltirilgan: Olib ketdilar Qaldirg‘ochlari Osmonlariga, Osmonlariga.

Qaldirg‘och o‘rin-joy, makon sifatida verballashtirilgan: Sen hali bilmaysan – yangi ayvonning Shiftini tanlagan qaldirg‘och – Vatan.

Qaldirg‘och so‘zi shoir ko‘z o‘ngida tabiat kartinasini ham, millat hayotining sog‘inchini ham, shoirlik hissiyotlarini ham, she‘r qismatini ham, lirik qahramon ruhiy holatini ham, asosiysi, Vatan qiyosini ham metaforik yo‘sinda ifodalash S.Sayyid idiositilini anglash imkonini beradi.

Har bir millat tilida olamning konseptual qiyofasi milliy bo‘yoqlarda ifoda etiladi, chunki olam manzarasi har bir tilning madaniyati zamirida paydo bo‘lgan, olamning milliy lisoniy manzarasi olam to‘g‘risidagi axborotning millat nuqtayi nazaridan qayta

<sup>13</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Учебное издание. – Москва: Восток-Запад, 2007. – С. 82.

<sup>14</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – Б. 516.

ishlanishi natijasidir. Bu axborot idrok qilishning qiyoslashga, solishtirishga asoslangan natijasi sifatida qayd qilinadi. Masalan: Samarqandday ko'ngling bo'lsa, Xivaday qalbing, Ko'ksing Oqsaroyga salkam teng bo'lsa. Ko'p o'rinlarda muayyan bir millatgagina xos toponimlar o'xshatish obrazining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Bunday axborot til egalari tomonidan tez va oson idrok etiladi, chunki qiyoslash zamirida obrazning milliyliigi anglashinib turadi.

Sirojiddin Sayyid o'xshatishlarida folklor qahramonlarining g'ayritabiiy kuch-qudrati, qahramonligini tasvirlashda mifologik kod – obrazlarga murojaat etiladi. Masalan, baquvvatlik, kuragi yerga tegmaslik, zabardastlik, polvonlik sifatleri ko'p o'rinlarda folklor personaji bo'lgan Alpomishga qiyoslangan: Asr yanglig' umr bersin Asrbekka yuz yillar, Ulg'aysin-u Alpomishday Polvonlarga teng bo'lsin! ("Asrbek"). Yoki o'xshatishlarda ayollarga xos, yurtparvarlik, matonat, vafodorlik, sadoqat Oybarchinga qiyoslangan: Taqdir, uning izlarini bor qilgin, Oybarchinday bir suluvga yor qilgin ("Polvon"). Demak, voqelik inson tafakkurida, avvalo, o'xshatish asosida namoyon bo'ladi.

S.Sayyid badiiy konseptual olamida shamol shaxslantirilganligini, ramz darajasiga ko'tarilganligini kuzatish mumkin.

Shoir shamolni ijodkor shaxsi, ya'ni o'zini gavdalandirishga xizmat qildirgan o'rinlarda "yengil, yoqimli shamol" ma'nosini beruvchi nasim sinonimik variantini tanlagan: Tinmadi hech yuzingizning yomg'irlari Men bir nasim bo'lib yetib kelolmadim. Yoki So'qmog'ingda men bir epkin Yo bir nasimman ("Vatan").

Shoir shamolni tirik mavjudot sifatida obrazlashtirib, muayyan harakatlarni–yurish, uvillash, yugurish, qo'shiq aytish, hushtak chalish, yig'lash, to'qish kabi harakatlarni bajartiradi: Hijronlarga to'liq she'riy daftarimni Sen varaqlab, shamol, meni axtardingmi? ("Bahor kelmish"); Bu oylar borimni yelga sovurdi, Yellar sayhonimda yelgani yelgan ("Bu oylar").

Shoir shamolni ayolning sochloriga qiyoslaydi: Yo'q erur yorug' jahonda sochlaring yanglig' shamol.

Ko'pincha shamolning nolasi muallifning o'tmish haqidagi g'amgin taassurotini yetkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi: Yig'lar bir juft buloq toshlar bag'rida, Shamollar kelarlar, uvlab ketarlar ("Vahob shoirning afsuslari").

Shamol – sog'inch kognitiv metaforasi badiiy ijodkor konseptual olamiga xos g'ayrioddiylikni namoyon qilgan: Sariosiyo osmonlari, Meni unuting! Ammo esda tuting – qaytaman. Qaytaman shamolni ko'ksimga bosib, Poyezddan tushaman tongni yetaklab. Ikkinchi bir o'rinda ham aynan shu mazmun ifodalangan, shoirning afg'on xonandasi Ahmad Zohir xotirasiga atab yozilgan she'rida Shamollar, Shamollar esar yurtingdan ifodasida ham sog'inch nazarda tutilgan.

Bobning ikkinchi fasli "Konseptosfera tushunchasi va uning S.Sayyid idiostilini shakllantirishdagi o'rni" deb nomlangan. Konseptosfera tushunchasi antropotsentrik tilshunoslikning termini sifatida tilshunoslikka kirib keldi va konseptosfera olam lisoniy manzarasining tarkibiy qismi bo'lib, uning tashkil etuvchilari – konseptlar masalasi antropotsentrik tilshunoslikning faol atamalaridan biri sifatida qo'llanadi. Konseptosfera atamasini fanga D.S.Lixachev olib kirgan va olim konseptosfera millat konseptlarining yig'indisi deb hisoblagan, konseptosfera til sohiblari konseptlarining

barcha potensiyasi natijasida shakllanadi, deb izohlagan<sup>15</sup>, til egasi lugʻatida toʻplangan potentsiallarni konseptosferalar deb atagan.

Keyingi yillarda olamning lisoniy manzarasi va oʻzbek tiliga xos konsept hamda konseptosferalar xususida olib borilgan tadqiqotlar orasida professor N.Mahmudovning “Tilning soʻz xazinasi va olamning lisoniy manzarasi” maqolasi alohida oʻrin tutadi<sup>16</sup>. Ushbu maqolada antropotsentrik tilshunoslikdagi olamning lisoniy manzarasining bevosita va bilvosita turlari, olamning kognitiv manzarasining shakllanishida tilning oʻrni, olamning lisoniy manzarasi milliy ongda yuzaga kelishi kabi muammolar tahlil etilgan. Shu bilan birga, bu maqolada oʻzbek tilshunosligida keyingi yillarda olamning kognitiv va lisoniy manzarasi masalalari boʻyicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi hamda umumlashtiriladi. Olamning konseptual manzarasi aslida inson tomonidan oʻzlashtirilgan dunyoning ongda tasviri sifatida belgilanadi<sup>17</sup>. Chunonchi, konseptosfera atamasiga D.Xudayberganova shunday taʼrif beradi: “Konseptosfera [lot. conceptus – tushuncha + sphaere –koptok; yadro]; Biror-bir xalq (millat)ga oid konseptlarning tartibga solingan yigʻindisi, tafakkurning informatsion bazasi. D.S.Lixachevning fikriga koʻra, millat madaniyati, folklori, adabiyoti va sanʼati, fani, dini va tarixiy tajribasi qanchalik boy boʻlsa, uning konseptosferasi ham shunchalik boy boʻladi. Mutaxassislarning qayd etishicha, konseptosfera oʻz koʻlamining kengligi bilan semantik maydondan farqlanadi<sup>18</sup>.”

“Konsept” atamasi kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri sifatida XX asrning 50-yillari oʻrtalaridan hozirgi davrgacha lingvistik tadqiqotlarda asosiy rol oʻynadi. “Konsept” atamasining eng faol qoʻllanilishi rus lingvistik adabiyotida 90-yillarning boshlaridan, kognitiv tilshunoslikning tilshunoslikda yangi, dolzarb yoʻnalish sifatida rivojlanishi bilan kuzatilmoqda. Shuni taʼkidlash joizki, “tushuncha” va “konsept” atamasi lotincha “conceptus” soʻzidan kalka boʻlishiga qaramay, ekvivalent emas va qoʻllanilishida farq qiladi.

P.V.Chesnokov konseptni dunyo lingvistik manzarasining bir qismi, maʼlum bir jamiyat yoki maʼlum bir shaxs uchun mavjud boʻlgan real voqelik haqida toʻliq bilim, deb taʼriflaydi<sup>19</sup>.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, konsept nazariyasi boʻyicha bir nechta qarashlar mavjud. Lingvomadaniy konsept D.S.Lixachev, V.V.Kolesov, Y.S.Stepanov, V.I.Karasik, N.F.Alefirenko, S.G.Vorkachev asarlarida oʻz ifodasini topgan. D.S.Lixachev oʻz ilmiy ishida ilk marta “konsept” atamasining lingvomadaniy mazmunini belgilab berdi.

“Yil fasllari” konseptosferasi istalgan ijodkor idiosstilida ifoda etiladi, bu inson va tabiat uygʻunligi, insonning har bir qiyosni tabiatdan olishiga ishoradir, fasllar faqat tabiatning takrorlanib kelishini anglatmaydi, unda inson umri fasllari ham aks etadi. Shu sabab olamning badiiy manzarasida yuqori qiymatga ega. S.Sayyidning idiosstilida “Yil fasllari” konseptosferasini bahor, yoz, kuz, qish konseptlari misolida tahlil qilinsa, ular oʻzbek ongida va shu asosda shakllangan ijodkorning individual yondashuvida

<sup>15</sup>Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Серия литературы и языка, 1993. Т. 52. – № 1. – С. 5.

<sup>16</sup> Махмудов Н. Тилнинг сўз хазинаси ва оламнинг лисоний манзараси // Сўз санъати, 2018. – № 1. – Б. 18–27.

<sup>17</sup> Селиванова О.О. Лингвистична энциклопедия. – Полтава: Довкилля-К, 2010. – С. 300.

<sup>18</sup> Худайберганова Д. Антропосентрик tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Т.: Tubo nashr, 2022. – В. 50.

<sup>19</sup> Чесноков П.В. Спорные проблемы курса “Общее языкознание”. – Таганрог, 1996. – С. 170–175.

o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan konseptlar jumlasidan bo‘lib, alohida milliylik ruhini aks ettiradi, ya’ni bu konseptlar zamirida olamni badiiy idrok etishning milliy ruhdagi individual mualliflik in’ikosi kuzatiladi.

Bahor konsepti bilan bog‘liq assotsiatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, konseptning milliy o‘ziga xosligi ushbu faslning kelinchakka o‘xshatilishi, o‘zbek ongida bahor kelinchakka qiyoslanib, “fasllar kelinchagi” degan hosila ma’nosiga ega. Kelinchak bir oilani gullab-yashnatsa, yangi oilaga yangi quvonch, iliqlik, go‘zallik olib kirganidek, bahor fasli ham butun borliqni yashnatadi, tabiatni uyg‘otadi, borliqqa qaytadan yangi tus kiradi. Shoirlar she’rlarida ana shu qiyos o‘z aksini topmay qolmaydi: Chimildiqdan chiqqan Kelinchak yanglig‘, Bir kunlar boshlanar Iforlig‘, ranglig‘.

Sharq xalqlarida qish konsepti insonning qarilik davriga ishora qiladi, umuman olganda, tabiatning bo‘ysunmaydigan to‘rt fasli insonlarning umr fasliga, ya’ni bolalik davri – bahor, balog‘at davri – yoz, ro‘zg‘or davri – kuz, qarilik davri – qish singlarlarga qiyoslanadi, bu kabi yondashuv S.Sayyidning “Umr” she’rida ham aks ettirilgan: Demang: umrdan bahor-u yoz-u kuz o‘tdi, Qish qolibdi-ku!

Qish konseptini shoir o‘zgalarga yomonlik qiluvchi, qalbida yaxshilik yo‘q bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llagan: Ko‘ksida yoz emas, qishlari borlar, Ko‘zlarin tubida tishlari borlar (“Afsus”).

Biroq yana bir o‘rinda qish konsepti yadrosida joylashuvchi qor tushunchasi qish tushunchasi bilan birgalikda ijobiy ma’noda inson terisining, ayol kishining terisi rangini ifodalash uchun qo‘llanilgan: Bu qizning oftobda qoraygan yuzi, Rang olib yashadi qish bo‘yi qordan, Bu qizning oftobda qoraygan yuzi, Qorday oppoq bo‘lib keldi bahorga (“Quyosh qizi”).

Shoirning “Sevgi” she’rida konsept yadrosida keluvchi qor tushunchasi ijobiy ma’noda qo‘llanmagan, ya’ni “ushalmagan sevgi” tushunchasini aks ettirgan: Sevgi mening erib ketgan qorimdurur.

Konseptlar madaniyat genotipiga kiritilgan o‘ziga xos madaniy genlar sifatida akslantiriladi, yuqorida keltirilgan misollar asosida ta’kidlash lozimki, S.Sayyid o‘zbek xalqining qadriyatleri, milliy-madaniy qarashlari, saviyasi, dunyoqarashi, turmush tarzi, olamni idrok etishini o‘zining badiiy individual manzarasida konseptlar ko‘rinishida mujassamlashtirgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Inson” konseptosferasining Sirojiddin Sayyid idiostili asosida lisoniy voqelanishi” deb nomlangan. Bobda “inson” konseptosferasining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari yoritilgan.

Bobning “Yigit”, “ayol”, “ona”, “farzand” konseptlarining badiiy verballashuvi” deb nomlangan birinchi faslida Sirojiddin Sayyid poetik tilida “inson” konseptosferasi yadrosida mikrokonseptlar tahlilga tortilgan.

Turkiy tillarda XIV asrgacha bo‘lgan yozma obidalarda “inson” so‘zi uchramaydi. Faqat “Dada Qo‘rqut kitobi”da O‘g‘lanum, sen insansin, hayvan ila musahip olmagil (O‘g‘lim, sen insonsan, hayvon bilan teng bo‘lma!) jumlasidagina buni ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, “inson” konseptosferasi bilish birligi sifatida barcha tillar va madaniyatlar sohiblari uchun universal hodisadir, ayni paytda, uning idrok etilishi, o‘ziga xos xususiyatlarining lisoniy voqelanishi va borliqni kategoriyalashdagi

ahamiyati har bir milliy tilda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi<sup>20</sup>. Sirojiddin Sayyid she'riyatida tasvirlangan "inson" konseptosferasi xususida ham ana shunday mulohaza yuritish mumkin, ya'ni shoirning poetik matnlarida "inson" konseptosferasiga oid "ona", "ayol", "yigit", "farzand", "singil" konseptlari va insonga xos "muhabbat", "sog'inch", "mehr" kabi his-tuyg'ularni ifodalagan konseptlarni, shuningdek, inson fenomeniga mansub kognitiv yaratilmalarni keng assotsiativ va konseptual aloqalarda tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi.

"Inson" konseptosferasi – olamning lisoniy manzarasini tadqiq qilishga yo'l ochib beradigan madaniy konseptlardan iborat makrotuzilma. Konseptni tahlil qilmasdan turib, etnomadaniyatni to'liq talqin qilish mumkin emas. Chunki har qanday realiyaning madaniy qadriyatlar tizimidagi o'rni bu realiyaga inson qanday munosabatda ekanligiga qarab aniqlanadi. O'zbek madaniyatiga xos olam lisoniy manzarasida inson tushunchasi Hazrati inson, komil inson leksemalari orqali beriladi va har bir leksemada signifikativ ma'no hamda konnotativ semalar bir-biriga yaqin ma'noda aks topadi.

"Inson" tushunchasi shoir poetik matnining tahlilida "inson" konseptosferasi ham erkak kishi, ham ayol kishi sifatida idrok qilingan, ya'ni hozirgi zamon termini bilan izohlaganda gender tenglik tamoyiliga amal qilingan.

Shu o'rinda shoirning "450 ming lola" deb nomlanuvchi she'rida: Ko'z oldinga keltirsang, Bo'ylari-yu ko'z qoshin, To'rt yuz ellik ming lola, Ko'kragida qo'rg'oshin.

Odatda, ijodkorlar, xususan, shoir va yozuvchilar tomonidan yigit konsepti badiiy matnda gul nomlari bilan tasvirlangani kuzatilmaydi. Ammo yuqoridagi bandda lola konsepti orqali Ikkinchi jahon urushida erta xazon bo'lgan yosh jangchi yigitlarni nazarda tutib, lola o'simligining erta bahorda tez ochilib, darrov so'lib nobud bo'lishini shoir tamsil san'ati asosida ifodalagan. Qolaversa, shoir qalami bilan aytganda, lola yanglig' bokira birikmasi, odatda, xotin-qizlarga nisbat berilishini hisobga olsak, bu metanomik o'xshatish Sirojiddin Sayyidning o'ziga xos individual uslubining ohoriy ko'rinishidir.

Urushda halok bo'lgan yosh jangchi yigitlar turna zoonimi orqali berilib, navqiron yigitlar turnaga o'xshatilishi tasviri navbahor elchisi – turna tuzilishidagi kognitiv metaforada aks etgan. O'xshatishga asoslangan bu assotsiatsiya poetik matnga metaforik mazmun kasb etgan. Ko'rinadiki, shoir badiiy matndagi har bir so'zga zalvarli mazmun yuklab, so'z isrofidan qochadi, "parhez" qiladi. Shoirning ushbu misralarida ikkinchi jahon urushining butun fojiasi troplar orqali lo'nda, ta'sirchan, betakror ifodalangan.

Siz – ketgan turnalarsiz, Siz – qaytmagan turnalar.

Sirojiddin Sayyidning she'rlarida ayol konsepti "momo", "ona", "kelin", "vazir", "singil", "gul", "yanga", "sarv", "savsan", "gulnazar", "nazir", "yor", "kiyik", "nigor", "parivash", "muslima", "jufti halol", "qaldirg'och", "daraxt", "rayhon", "lola", "maslahatgo'y" kabi leksik birliklar bilan ifodalaganligini ko'ramiz. Shoirning umr yo'ldoshini quyidagi misralarda gulnazarim, nazirim, hamisha yonimda hozir-u nozirim, har qanday masalada maslahatgo'yim deydi, oila atalmish qo'rg'onda erkak

---

<sup>20</sup> Кдырбаева Г. К. «Ман» – «адам» концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 11.

podshohligini, ayoli vaziri ekanligini ta'kidlaydi: Mening gulnazarim, nazirim mening, Yonimda hozir-u nozirim mening, Choy ichgan paytda ham maslahatgo'yim, Ey jufti halolim – vazirim mening.

O'zbek xalqida to'y azaliy qadriyatlardan biri bo'lib, u to'qlik, farovonlik va tinchlik-totuvlik belgisidir hamda bu tushuncha o'zbek xalqining milliy konseptual olamida o'ziga xos qadr-qimmatga ega ichki shakl hisoblanadi. Burungi zamonda qizlarni kelin qilib aravada yangalari hamrohligida kuyovnikiga olib borishgan. Shoirning "To'y" nomli she'rida o'simlik kodi – Gul yaratilmasi orqali kelinlik yoshiga yetgan qizlarni bamisli gul deya tasvirlaydi.

Aravada yig'laydi Gul, atrofida  
Yangalarning koyishlari ketmoqdadir...

Sarv va savsan yashil rangli sog'lom, bo'y basti uzun va nozik bo'lgan daraxtlar o'zbek millatiga mansub insonlar ongida ayol obrazini shakllantiruvchi madaniy kod sanalib, "balog'atga yetgan qiz" tushunchasini chiroyli tasvirlash uchun she'riy matnlarda ishlatiladi. Ammo shoir "Ketmonchi qizlarga" nomli she'rida sarv va savsan aniqlanmishlari oldidan sarg'aygan sifatlovchisidan foydalanish orqali qari qiz birikmasini keltirishni ma'qul ko'rmasdan, metaforik obraz yaratgan. Bu esa, o'zbek ongida ayol zotiga bo'lgan hurmatning namunasi bo'lib, qari qiz birikmasini to'g'ridan to'g'ri qo'llash milliy-madaniy xoslikka mos kelmaydi, ikkinchidan, badiiy ifodani xiralashtiradi.

Sabohdan sahroga aylanganlarim,  
Sarg'aygan sarvlarim, gul savsanlarim...

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Sirojiddin Sayyid she'rlarida "inson" konseptosferasining nominativ maydoni 1-diagrammada keltirilgan.



1-diagramma. "Inson" konseptosferasining nominativ maydoni.

I. Konseptosfera yadrosi: inson: erkak – ayol.

II. Yaqin sarhad: erkak – farzand – ota – muallim – og‘a – singil – nevara – o‘g‘lon – kelin – ustoz – yigit – o‘smir – kelinchak – volida – momo – jo‘ra – domla – soqiy – bobo – kampir – opa – yo‘lovchi.

III. Uzoq sarhad: sanam – suvchi – lola – usto – hofiz – xodim – bola – xola – shoir – raqib – sinfdosh – sarv – kitobxon – chimildiq – beshik – ijod – sevgi – nigor – el – xalq – ijodkor – to‘y – olomon – mehr – oshiq – sog‘inch – gul – yulduz – ishqiboz – mehmon – xodim – lola – chavandoz.

Shuningdek, ushbu faslda ona, farzand konseptlarining badiiy verballashuvi yadro va periferiya qismlariga ajratilgan hamda tahlil qilingan.

Bobning “Olamning badiiy lisoniy manzarasida “vatan”, “muhabbat”, “baxt”, “sog‘inch” konseptlari ifodasi” deb nomlangan ikkinchi faslida Sirojiddin Sayyid poetik tilida “vatan”, “muhabbat”, “baxt”, “sog‘inch” konseptlari tahlilga tortilgan va yadro va periferiyaga ajratilgan.

Milliy til uchun vatan tushunchasi tilshunoslikning muhim tarkibiy qismidir. “Vatan” tushunchasi birinchidan, ushbu konsepsiya inson va jamiyatning doimiy yashash joyiga, shuningdek, ma‘lum bir hududda odamlar yashaydigan va sodir bo‘lgan ko‘plab tarixiy-madaniy voqealar hamda hodisalarga munosabatini ochib beradi. Ikkinchidan, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, yangi siyosiy-iqtisodiy notinchlik va qarama-qarshiliklar davrida milliy masala, qadriyatlar va ustuvorliklar har qachongidan ham dolzarb bo‘lib tuyuladi<sup>21</sup>.

Vatan tushunchasi ona leksemasi bilan hamisha yonma-yon tilga olinadi va shoir hamda ijodkorlar tomonidan vatanning onaga qiyosi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, Abdulla Oripov “Vatan” nomli she‘rida vatan tushunchasi “Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g‘amguzorim bor” deya ta‘riflagan bo‘lsa, Muhammad Yusuf “Mening Vatanim” she‘rida “Onamga o‘xshaydi mening vatanim, Onamday mehribon, onamday xoksor”, Shukrullo “Tirik ruhlar” romanida “Jonimni ham sendan ayamayman deymizmi, demak, Vatan onadek aziz ekan!” deb ta‘riflanadi. S.Sayyid esa “Bahor kelmish” she‘rida vatan – ona, ona – vatan degan: “Vatan desam, ko‘z oldimga onam kelgan, Onam desam, nigohimda paydo Vatan”.

Shoirning “Vatan desam” nomli she‘rida Ona yurtning lisoniy manzarasini yorqin bo‘yoqlarda milliyligimizni namoyon etuvchi konseptlar: **ayvonlari, kayvonisi, ko‘zga surtay**, lirik takrorlar: **bu, diyor, ko‘z, yosh, non** bilan juda ta‘sirli aks ettiradi. Ko‘z o‘ngimizda sog‘inch to‘la ko‘z yoshlari yuzlaridan oqayotgan, aziz yurtning nonlarini ko‘zlariga surtib tavof qilayotgan vatandoshlarimiz siymosi jonlanadi: Bu diyorning ayvonlari nurga talosh, Bu diyorning kayvonisi oy-u quyosh, Vatan desam ko‘zimda yosh, yuzimda yosh, Ko‘zga surtay nonlarini, nonlarini.

Quyidagi jadvalda inson konseptosferasi doirasidagi vatanni ifodalagan konseptlar majmuasini Sirojiddin Sayyidning deyarli barcha poetik nutqidagi kognitsiyalarini qamrab olishga urinib ko‘rdik:

---

<sup>21</sup><http://elib.bsu.by/handle/123456789/240779>. Своробович В.Б. Интерпретация концепта “родина” в русском и английском языках в аспекте перевода // Языковая личность и перевод: материалы IV Междунар. науч.-образоват. форума молодых переводчиков. – Минск, 2019. 21–22 нояб. / Белорус. гос. ун-т; редкол.: С.В.Воробьева (отв. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2019. – С. 208–212.

## Sirojiddin Sayyidning poetik nutqlaridagi kognitsiyalari

Mavzuiy guruhlar	Mavzuiy guruhlar tavsifi	Poetik matnlardagi konseptlar ro'yxati
		konsept, manba
<i>Maishiy tushunchalar</i>	Uy-turar joy, xo'jalik, anjomlar, yegulik, bayram, mehmondorchilik, dam olish	Bobom chaylasi ("Vatan" she'ridan) Oy-u quyosh ko'rpa solgan ayvonim ("Vatan" she'ridan) Termiziyalar bedor yotgan qo'rg'onim ("Vatan" she'ridan) Karvonim ("Vatan" she'ridan) Beshigim ("Vatan" she'ridan) Eshigim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Tuqqan yerim ("Jonim vatan" she'ridan) Turg'on yerim ("Jonim vatan" she'ridan) Sajdagohimsan ("Jonim vatan" sheri)
<i>Qarindoshlik aloqalari</i>	Nikoh, farzand, qarindosh, avlod	Shukrona singlim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Onajonim ("Vatan qo'shig'i" she'ri) Onamsan ("Jonim vatan" she'ridan) jigardosh, jondosh Ona O'zbekiston ("Ogohlik talqini")
<i>Insonning jismoniy, psixofiziologik, psixologik tavsifi</i>	Badan, sog'lik, qobiliyat, yumor, samimiylilik	Dil porasi ("Vatan" she'ridan) Ko'z qorasi ("Vatan" she'ridan) Ko'zimdirsan ("Vatan" she'ridan) So'zimdirsan ("Vatan" she'ridan) Og'rig'im ("Vatan" she'ridan) Jonimdir ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Yuzing ("Ona yurt" she'ridan) Yorug' yuzim ("Jonim vatan" she'ridan) Jonim tanim ("Jonim vatan" she'ridan) Ko'zim ("Jonim vatan" she'ridan)
<i>His-tuyg'ular va insoniy burchlar</i>	Muhabbat, quvonch, shodlik, orzu-havas, g'urur	Mangu muhabbatdir ("Ulug' bobong Navoiyning...") Ko'nglim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Orzu-havasi ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Sharaf-shonim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Sadoqat ("Vatanni sevish kerak" she'ridan) Bo'yingdagi qarz ("Ostona haqida qo'shiq" she'ridan) Mehr-shafqatimsan ("Jonim vatan" she'ridan) G'ururimsan ("Jonim vatan" she'ridan) Orimsan ("Jonim vatan" she'ridan) poyoni yo'q, mangu ("Mir Alisher") poyoni yo'q, mangu ("Mir Alisher") Shon-shavkatimsan ("Jonim vatan" she'ridan)
<i>Shaxs va moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy tushunchalar</i>	Shaxs otlari, mehnat, bilim, do'stlik, mardlik, etika, estetika, ona tili, e'tiqod, insonparvarlik	Shoh-u sultonim ("Vatan" she'ridan) Cho'lponim ("Vatan" she'ridan) Fitratim ("Vatan" she'ridan) Qodiriyim ("Vatan" she'ridan) Usmonim ("Vatan" she'ridan) Posbonim ("Vatan" she'ridan) Dostonim ("Vatan" she'ridan) Qur'onim ("Vatan" she'ridan) Nur bayonim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Buxoriy bobom ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Suvoriy bobom ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Shohjahonim ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Qo'shig'im ("Vatan qo'shig'i" she'ridan) Ilm-u hadis, hikmatimsan ("Jonim vatan" she'ridan)

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, "inson" konseptosferasini ifodalovchi turli tipdagi konseptlar o'rtasida aniq chegaralar yo'q. Bu konseptlar tiplari mazmuni va strukturasi bo'yicha ham rang-barangdir. Ular "inson" universal kodining turli taraflarini ochish va izohlash vazifasidan kelib chiqib, konseptual maydonda yagona kognitiv qatlamni tashkil etish bilan umumiylik kasb etadilar.

Olamning hissiy-lisoniy manzarasi til hissiy makonini ko'rish, jamoaning hissiy tavsifini yetarlicha ochib berish imkonini beradi. Badiiy matnlarda his-tuyg'ularni verballashtirish mexanizmlari va usullari lisoniy shaxs – matn muallifining hissiylik fenomeni nuqtayi nazaridan ifodalanadi. Inson konseptosferasi tahlilga tortilar ekan, shoir she'rlarida "vatan", "sevgi", "baxt", "sog'inch" konseptlarining yangicha yaratilmalari kuzatiladi.

## XULOSA

1. Dunyo tilshunosligida idiostil fenomeni "til shaxsi" tushunchasi ostida tadqiq etilganligi, ushbu tushuncha uzoq yillar filologiyaning o'rganish obyekti sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda o'rganilganligi, o'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tili, stilistika va lingvopoetikaga oid ishlarda keng amal qilganligi ko'zga tashlanadi. Til shaxsini o'rganish asnosida til egasining idiostili va o'sha davr tili imkoniyatlari, har bir ijodkor o'z davri tilining boyishiga qay darajada hissa qo'shganligini aniqlashtirish mumkin bo'ladi.

2. Idiostil fenomeni individual-mualliflik pragmatikasini, badiiy tizimlarning estetik konseptualligini va o'zgaruvchanligini aks ettiruvchi o'ziga xoslik sifatida belgilanadi. Natijada, ma'lum bir muallifning asarlarini o'z davridagi boshqa mualliflarning asarlari tilidan, adabiy yo'nalishi hamda kompozitsion qurilishidan va hatto mavzu doirasidan ajratib turadigan chegara yuzaga kelib, badiiy matnni badiiy voqelik sifatida emas, balki individual badiiy tafakkur mahsuli sifatida tadqiq etishga e'tibor qaratila boshlanishiga sabab bo'lgan.

3. Olamni milliy bo'yoqlarda badiiy idrok etishdagi ijodiy mahorat, badiiy konseptual olamda til birliklarining tanlanishidan tortib, ularda yangi semantik qirralarni kashf eta olish tajribasi Sirojiddin Sayyid idiostilini belgilagan, til birliklarining odatiy til me'yorlaridan farqli holda qo'llanilishi, milliy-madaniy birliklarning qo'llanishidagi ustuvorlik, ijodkorning aniq maqsadi va mahoratidan kelib chiqqan holda kontekstdagi ifodalilik hamda undagi kognitiv o'ziga xosliklarni aniqroq aks ettirish ijodkor idiostilining bosqichma-bosqich murakkablashib borganligini ko'rsatgan.

4. Inson tilni qanday o'zlashtirsa, atrofdagi voqelik haqidagi bilimlarni ham xuddi shu yo'sinda egallaydi, shu bilan birga, olamning konseptual manzarasi bilan bir qatorda, unga zid bo'lmagan, ayni damda, o'xshash ham bo'lmagan olamning lisoniy manzarasi ham shakllanadi. Ma'lum bir voqelikni tushunish, anglash muammosi, eng avvalo, inson faoliyatida voqelanadigan va namoyon bo'ladigan olamning konseptual manzarasi asosida olamning lisoniy manzarasini moddiylashtiradi.

5. Olamning konseptual manzarasi – bu shaxsning turli xil kognitiv, amaliy faoliyatida potensial ravishda namoyon bo'ladigan obyektlar haqidagi ma'lumotlar tizimi bo'lib, bunday tizimning axborot birligi konsept hisoblanadi, uning vazifasi

olamning konseptual manzarasi tarkibiga kiritilgan voqelik obyektlarining konseptual, hissiy, assotsiativ, verbal, madaniy va boshqa mazmundagi tushunchalarni inson ongida mustahkamlash hamda faollashtirishda namoyon bo‘ladi.

6. Konseptosferaning asosini tashkil etuvchi konseptlar olam manzarasini verballashtiruvchi milliy tafakkur tarzi mavjudligini ko‘rsatadi, obyektlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot yaratish jarayonida yuzaga keladigan xotiraning operatsion mazmunli birligi, miyaning aqliy tili sifatida konsept shakllanadi va bu ma‘lumotlar real dunyoda ham, xayoliy olamlar haqidagi ma‘lumotlarning ham obyektiv holati haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga qamrab olishi mumkin.

7. Olamning lisoniy manzarasining bir ko‘rinishi bo‘lgan olamning badiiy lisoniy manzarasi milliy-madaniy konnotatsiya ustuvor bo‘lib, ijodkor konseptual olamini milliy semalarda aks ettiruvchi milliy-madaniy birliklar konsept markazida joylashgan, ijodkor badiiy tafakkurida konseptlar kognitiv ko‘chimlar, ikkilamchi nominativ birliklar bilan boyitiladi. Bu esa ijodkor idioshtilining muhim qirrasini bo‘lib namoyon bo‘lishi “Yil fasllari” konseptosferasida ochib berilgan.

8. Konseptlar voqelikni badiiy idrok etishga, yangilangan obrazli tasvirlarni tushunishga, ma‘lum bir xalqning kommunikativ xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlarini individual-mualliflik bo‘yoqlarida belgilashga xizmat qiladi. “Inson” konseptosferasining “ona”, “ayol”, “muhabbat” va “farzand” kabi konseptlari ijodkorning individual badiiy konseptual olamida obrazlashtirilib, ulardagi umumiy o‘xshashlik bilan birga, farqli tushunchalarning milliy o‘ziga xos in‘ikosini idrok etilishini ta‘minlagan.

9. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida “Inson” konseptosferasi va u orqali ifoda etilgan barcha konseptlar ushbu yaxlitlikning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib, ular konsept ifodalagan ma‘nolar yordamida aynan ushbu tizimning tarkibi sifatida tizim bilan mushtaraklashgan. “Inson” konseptosferasi bilan bog‘liq konseptlarning umumiy va milliy o‘ziga xos xususiyatlarini olamning universal, milliy, badiiy manzarasi; tarixiy va diniy-madaniy xususiyatlar; tabiat bilan uyg‘unlik; tabiiy muhit; milliy mentalitet va insonning ruhiy dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar ochib berishi Sirojiddin Sayyid idioshtilini yaxlit planda tushunish imkonini bergan.

10. “Inson” konseptosferasining mikro konseptlar orqali lisoniy voqelanish tadqiqi Sirojiddin Sayyid idioshtilining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish imkoni berdi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligidagi matnlarni lingvokognitiv va lingvomadaniyatshunoslik aspektlarida talqin qilish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi. Tadqiqotda “Inson” konseptosferasining shoir konseptual manzarasida lisoniy voqelanishining o‘ziga xos xususiyatlarini qiyoslab o‘rganilishi nazariy va amaliy jihatdan muhim bo‘lib, tilshunoslikning lingvomadaniya va lingvokognitiv yo‘nalishida bajarilayotgan tadqiqotlar natijalari ko‘lamini yanada boyitgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НУРМОНОВА САРВИНОЗ ФУРКАТ КИЗИ**

**ИДИОСТИЛЬ И КОНЦЕПТОСФЕРА ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ  
СИРОДЖИДИНА САЙИДА**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.1.PhD/Fil.2175.**

Диссертация выполнена на кафедре узбекского языкознания Навоийского государственного университета.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета [www.uzmu.uz](http://www.uzmu.uz) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

**Начный руководитель:**

**Юсубова Раъно Норбаевна**  
доктор филол. наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Курбанова Мухаббат Матякубовна**  
доктор филол. наук, профессор

**Бахронова Дилрабо Келдиёровна**  
доктор филол. наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ час. Адрес: 100074, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Университет, 4. Тел.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; факс: (99871) 246-65-24 e-mail: [paika@nuu.uz](mailto:paika@nuu.uz). Национальный университет Узбекистана, факультет Узбекской филологии (1-этаж, комната 108).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). Адрес: 100074, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Университет, 4. Тел.: (99871) 246-08-62.

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года.

(Протокол рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года).

**Н.А.Рахманов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор фил.наук, профессор

**М.Б.Хужамкулова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор фил. по фил.наукам, доцент

**А.Э. Маматов**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор фил.наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** Согласно антропоцентрической парадигме, которая сегодня становится устойчивой в мировом языкознании, человеческое мышление и восприятие внешнего мира напрямую связаны с языком, целесообразность изучения художественного текста с лингвокультурной, когнитивно-лингвистической, социолингвистической, прагмалингвистической, психолингвистической точек зрения нашло свое практическое подтверждение. Языкознание на сегодняшний день занимается изучением таких проблем, как язык и общество, язык и культура, язык и личность, язык и мышление, также как и при исследовании языка художественного произведения, изучающего художественно-эстетические стороны языка, большое значение имеют исследования, проводимые в связи с этими аспектами.

В мировом языкознании актуальными и перспективными становятся направления исследований, формирующие новую методологическую систему анализа и интерпретации художественной речи в когнитивно-концептуальном подходе, определения идиостиля поэта. В частности, создание ядра и периферии концептов, воплощающих национальный менталитет в творческом идиостиле, роль когнитивного содержания в восприятии художественного текста, вопросы разработки научно-методологической базы, описывающей персональную концептосферу автора и анализа ее связи с национальной концептосферой, могут дать ценные теоретические знания как для концептуальной лингвистики, так и для лингвопоэтики.

В годы независимости при изучении узбекского художественного текста серьезное внимание уделялось современным методам исследования художественно-эстетического мира человека, особенно в антропоцентрическом аспекте, а это создало нам условия для лучшего понимания и освоения чрезвычайно богатых возможностей узбекского языка, а также необходимости раскрытия сторон, связанных с индивидуальным стилем определенного поэта. Такая ситуация соответствует приоритетным целям внимания к нашему родному языку на государственном уровне. «В сегодняшнюю эпоху глобализации для каждой независимой страны естественно обеспечение своих национальных интересов, и, в связи с этим, прежде всего, сохранять и развивать свою культуру, исторические ценности, родной язык»<sup>22</sup>. В этом смысле, в качестве примера анализа творческих примеров народного поэта Узбекистана Сироджиддина Саййида с лингвокогнитивной, лингвокультурологической точки зрения, проявляется выражение идиостиля поэта в концептах и объединение данных концептов в единую концептосферу позволяет исследовать влияние творческого

---

<sup>22</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4561730>

совершенства поэта на художественный язык, на художественно-эстетическое мышление узбекского народа, его служение обогащению узбекского языка. Данная ситуация создает необходимость научного исследования данного вопроса и показывает актуальность выбранной темы диссертации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управлению и финансированию научно-исследовательской деятельности», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** В мировом языкознании проблема идиостиля творческой личности была изучена в работах таких исследователей, как Л. Хуанг, Н.Э. Энквист, Дж. Боас Биер, Г.Лич, М. Шорт, Т. Кендалл, Э. Лонгли, Ф. Ливис, Г. Манфред<sup>23</sup>, проблему исследования идиостиля творческой личности в русском языкознании в различных аспектах изучили Ю.Г. Малышева, И.А. Шмуль, А.А. Дударева, И.А.Тарасова, Н.В.Колесова, А.И. Грищенко, Н.П. Мельниченко, Ю.В.

---

<sup>23</sup>Huang L. Style in translation. A Corpus-based perspective. –China, 2006. –P. 212.; Enkvist N. E. On defining style: An essay in applied linguistics. –London: Oxford University Press, 1996. – P. 115.; Enkvist N. E. On defining style: An essay in applied linguistics. –London: Oxford University Press, 1996. –P. 115.; Leech G., Short M. Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose. –London: Longman, 2006. –P. 405.; Kendall T. Modern English war poetry. – Oxsford Univ.Press, 2006, – 269 p.; Longley E. Yeats and Modern poetry. – Cembridge: Cembridge UP,2013.– 2; Leavis F.R. New bearings in English poetry, astudy of the contemporary situation. Bloomsbury House, 2015. – 238 p.; Manfred G. Introduction to Early Modern English poetry. – Cembridge Univ.Press,1993. –256 p.

Кловак<sup>24</sup>. В узбекском языкознании<sup>25</sup> М. Касымова, С. Умирова<sup>26</sup> провели исследования в этом направлении, сосредоточив внимание на проблеме индивидуального стиля в работах, посвященных лингвопоэтике и лингвостилистической природе.

